

MADANIYAT QISHLOQ SHEVASINING FONETIK XUSUSIYATLARIGA OID MULOHAZALAR

Hasanov Abdumannon,

*O‘zR Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
O‘zbek tili tarixi va dialektologiya bo‘limi mudiri, filologiya fanlari doktori*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17488911>

Annotsiya. Bu maqolada Baxmal tumanidagi Madaniyat qishlog‘i shevasining fonetik o‘ziga xosligi haqida fikrlar bildirilgan. Sheva ahlining kundalik so‘zlashuv jarayonlarida kuzatiladigan tipik fonetik o‘zgachaliklar tegishli so‘zlar asosida ko‘rsatib o‘tilgan. Shevaning fonetik tizimidagi xususiyatlarning paydo bo‘lish omillari va boshqa shevalardagi ko‘rinishlariga munosabati haqida ham ayrim mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: *tovush, fonetik o‘zgarish, artikulyatsiya, talaffuz; sheva, hudud.*

Har bir shevaning o‘ziga xos fonetik jihatlari bor. Bu jihatlarni tilshunoslikda artikulyatsiya bazasi [Jamolxonov, 2005: 30] deb nomlanadigan tushuncha misolida ko‘rib o‘tish mumkin. Agar sheva vakili boshqa sheva yoki adabiy tildagi birlikni talaffuz etsa, uning tovushi o‘z shevasi fonetik xususiyatini “oshkor qilib qo‘yadi”. Shu bois ham ko‘pgina kishilar so‘zlovchining talaffuzi (tovushlarni aytishi) asosida uning qaysi sheva vakili ekanligini ilg‘ab oladilar. Bu holat ko‘rsatadiki, kishining qaysi sheva vakili ekanligi, birinchi galda, uning talaffuzi asosida idrok etiladi. Boshqa hududlarda bir muddat yashagan (masalan, boshqa hududdagi ta‘lim muassasasida o‘qigan yoki ishlash uchun boshqa hududlarda bir muddat istiqomat qilgan) kishilarda shevaga xos xususiyatlar ham o‘zgaradi: uning shevaga xos talaffuz ko‘nikmalari o‘sha (boshqa) hududda unga hamrohlik qilgan kishilar artikulyatsion bazasiga yaqinlashadi, o‘sha kishilar qo‘llaydigan leksik va grammatik birliklarni qo‘llashga o‘rganadi, bir so‘z bilan aytganda, uning shevaga xos lisoniy ko‘nikmalari “buziladi”. Bunda kishining lisoniy ko‘nikmalari lisoniy muhitga moslashishi ancha vaqt talab qiladi. Vaqt davomiyligining oshishiga mutanosib tarzda yangi ko‘nikmalarning shaxs lisoniy ongida mustahkamlanishi ham qat‘iylashadi.

Bu kabi holatlar ko‘rsatadiki, muayyan shevaning o‘ziga xosligi, birinchi galda, uning fonetik tizimida namoyon bo‘ladi. Demak dialektologik tadqiqotlarda shevaning fonetik xususiyatlariga e‘tibor qaratish birlamchi masalalardan sanaladi.

Madaniyat qishloq ahli o‘zbek millati tarkibiga kiruvchi turk qavmidan tashkil topgan. Turklarning kichik bir guruhi kaltatoylar Baxmal tumanining ma‘muriy markazi – O‘smat shaharchasida istiqomat qiladi. Kaltatoylarning o‘ziga xos shevasi X.Jo‘rayev tomonidan o‘rganilgan [Jo‘rayev, 1981: 144]. Mazkur tadqiqot salkam yarim asr oldin amalga oshirilgan va unda asosan kaltatoy urug‘ining shevasiga diqqat qaratilgan. Madaniyat qishlogidagi turk urug‘u shevasi ham kaltatoylar

shevasiga o‘xshash bo‘lsa-da, kichik va juz‘iy o‘zgachaliklar ham uchraydi. Shu bois biz tushbu maqolada turk elatining aynan turk urug‘iga mansub bo‘lgan Madaniyat qishlog‘ida istiqomat qiluvchi aholi shevasiga e‘tibor qaratdik.

Biz o‘rganayotgan Madaniyat qishloq shevasi fonetikasi o‘zbek adabiy tili va boshqa shevalardan jiddiy farq qilmaydi. Chunonchi, shevaning qarluq lahjasiga mansub ekanligi uning adabiy tilga yaqinligini yana bir bor dalillaydi. Sheva fonetikasining eng muhim jihatlar ham qarluq lahjasiga oid umumiy qonuniyatlarga hamohangligini qayd etish joiz: sheva “y”lovchi sheva bo‘lib, unda “j”lashish hodisasi kuzatilmaydi (*cäppä, cävlik, becägim* kabi so‘zlar bundan mustasno, ular qo‘shni qipchoq shevalaridan o‘zlashgan). Shuningdek, shevaning qo‘shni tojik tili bilan ta’sirlashuvi natijasi sifatida “o”lashish biroz kuchli (bu haqda quyida misollar taqdim etiladi). Shevaning yana bir o‘ziga xos fonetik jihati unda o‘ tovushi so‘z boshida kelganda, odatda, *v* tovushi bilan birgalikda talaffuz etiladi (masalan, *vötin, völli* (o‘ldi) shaklida. *Öşä, öt* (olov) so‘zlari bundan mustasno). Shevada so‘z oxiridagi jarangsiz undoshlarning jarangli undoshga aylanishi ham kuzatiladi (masalan, *quyüg, çiräg; teräg, biläg* va b.)

Shevada unli va undosh tovushlarning miqdori va sifati boshqa qarluq tip shevalarnikiga o‘xshash. Madaniyat qishloq shevasida 6 ta [Жӧпаев, 1981: 15] unli borligi qayd etiladi: ä, ā, ĩ, e, ü, ö. Undoshlar soni esa 24 tani tashkil etadi: b, d, f, g, h, c, j, k, l, m, n, p, q, r, s, t, v, x, y, z, ġ, ş, ç, ŋ.

Madaniyat qishloq shevasida fonetik o‘zgarishlar asosan nutq jarayonida pozitsion va kombinator omillar ta’sirida yuzaga keladi. Sheva ahlining nutqiy tezligi o‘rtacha. Kishilarning yosh xususiyatiga hamohang tarzda keksalarda biroz vazminlik (sekinlik) kuzatiladi, yoshlarda esa nisbatan tez gapirishga moyillik seziladi. Biroq keksalar nutqida ham (vazmin bo‘lishiga qaramasdan) fonetik o‘zgarishlar yaqqol ko‘rinadi. Quyida shevaning eng tipik fonetik o‘zgarishlari haqida ma’lumot beriladi.

[ä > ā] o‘zgarishi: *hāli, ālāv, äsqātmāq, ārāzlämāq, bāhānā, cāhān*. Bu o‘zgarish asosan ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarda kuzatiladi. Chunonchi, ilk bo‘g‘ini ochiq bo‘g‘in bo‘lgan Co-CV hamda o-CVC tarkibli so‘zlarda kuzatiladi. Ikkinchi bo‘g‘inda a tovushining o ga o‘zgarishi asosan fe‘l turkumi doirasida uchraydi.

[ā > ä] o‘zgarishi: *yāqqa* (yoqa), *yāmān, sāmān, tāmāg, āmān, äyāg, dārrāv, ketmān, ärvāx, küyāv*. Bu o‘zgarish ham asosan ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarda kuzatiladi. Chunonchi, birinchi bo‘g‘ini ochiq bo‘g‘in bo‘lgan Co-CVC hamda CoC-CV yoki VC-CoC (CVC-CoC) tarkibli so‘zlarda kuzatiladi. Ikkinchi bo‘g‘indagi *o* tovushining *a* ga o‘zgarishi juda kam uchraydi.

Madaniyat qishloq shevasida *a* va *o* unlilarining o‘rin almashishi ham kuzatiladi: *qarā, ālā, ävqāt* kabi. Ushbu so‘zlarning eski (turkiy) tilda ham shu

shaklda qo‘llangani shevaning til tarixiga oid materiallarni ham aslicha saqlab kelayotganini dalillaydi.

[ö > ā] o‘zgarishi: *cāyäg, vāq (öq), yāg* (yo‘q ma’nosida). Bu o‘zgarish shevada o‘ unlisining o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq. Sheva ahli o‘ tovushi so‘zning birinchi bo‘g‘inida (undoshdan keyin) kelganda uni o ga monand talaffuz etadi. Bu holat ayrim so‘zlargagina xos xususiyat bo‘lib, istisnoli holatlar ham ko‘p (masalan, töy, böy). Shuningdek, *vāq (o‘q)* so‘zi talaffuzida ham [ö > ā] o‘garishi kuzatiladi (ammo *vöt, vör* (o‘r) so‘zlari bundan mustasno).

[ü > i] o‘zgarishi: *tāmbir* (tanbur ma’nosida), *zāmbir*. Bu o‘zgarish orqa qator tor unlining lab undoshi tasirida old qator tor unliga aylanishidan yuzaga keladi. Bu o‘zgarish asosan ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarning oxirida kuzatiladi.

[e > ye] o‘zgarishi: *yeshshag, yechki*. Mazkur o‘zgarish e tovushi so‘z boshida kelgandagina kuzatiladi. So‘z o‘rtasida va oxirida bunday holat kuzatilmaydi. Bu o‘zgarish bizningcha, e tovushining so‘z boshida kelish holatlari kamligi bilan izohlanadi. Aslida ham, bunday holatlarning kamroq ekanligi e tovushining so‘z boshida kelishi til tarixining nisbatan keyingi davrlarida faollashganiga bog‘liq (o‘ tovushi haqida ham shunday fikrlarni aytish mumkin).

[i > ye] o‘zgarishi: *yekki*. Bu o‘zgarish yuqoridagi holatga o‘xshash. Lekin faqat *ikki* so‘zining talaffuzi bilan bog‘liq vaziyatdagina voqelanadi.

[ä > i] o‘zgarishi: *düşänbi, seşänbi, çārşänbi, päyşänbi, şänbi yäqşänbi*. Bu o‘zgarish asosan yuqoridagi hafta kunlari nomida kuzatiladi. Bu o‘zgarish yondosh tojik xalqining talaffuziga taqlidan shakllanganini ilg‘ash qiyin emas. [ä > i] o‘zgarishi yuqoridagi so‘zlardan boshqa birliklarda uchramaydi.

[ö > vö] o‘zgarishi: *vör, vötin*. Bu o‘zgarish yuqorida tavsiflanganidek, shevaning muhim o‘ziga xos fonetik xususiyati hisoblanadi. O‘ tovushi bilan bog‘liq ushbu xususiyat shevada ancha oldindan mavjud bo‘lganligini taxmin qilish mumkin. Zero, *vötvöçāq* kabi kompozitsion yasalmalalar tarkibida ham o‘ tovushining vo‘ tarzida istifoda etilganligi shunday xulosa qilishga imkon beradi. Shuningdek, o‘ tovushining so‘z boshida kelish holatlari kamligi ham uning v bilan birga talaffuz etilishiga olib kelgan.

[ü > vā] o‘zgarishi: *vāqalāmāq*. Mazkur o‘zgarish faqat *uqalamoq* so‘zi bilan bog‘liq holatda sodir bo‘ladi. Buning asosiy sababi *uqalamoq* so‘zidagi u o‘ tovushiga monand talaffuz etiladi. Bu esa yuqoridagi ([ö > vö] o‘zgarishi) kabi holatni voqelantiradi.

Madaniyat qishloq shevasida uchraydigan fonetik o‘zgachaliklar undoshlar miqyosida ham kuzatiladi:

[b > p] o‘zgarishi: *pütün, püt, püt, pütirmāq*. Madaniyat qishloq shevasida b tovushining so‘z boshida qo‘llanilishi mavjud. Biroq yuqoridagi kabi so‘zlarda b

tovushining jarangsizlashishi kuzatiladi. Umuman *b* tovushining so‘z oxirida hamda so‘z o‘rtasida jarangsiz undosh bilan yonma-yon kelganda jarangsizlashishi o‘zbek adabiy tili uchun ham umumiy qonuniyat [Jamolxonov, 2013: 133]. Biroq shevalarda uning so‘z boshida, xususan, *bVtVC*, *bVt* tarkibli ayrim so‘zlarda jarangsizlashishi kuzatiladi. Bu o‘rinda jarangsizlashayotgan *b* tovushining o‘zgarishiga keyingi jarangsiz undosh (*t*)ning ta’sir mavjudligini ham e’tirof etish o‘rinli.

[*t* > *d*] o‘zgarishi: *dāvūš*, *dāšqarī*. Qishloq shevasida o‘g‘uz lahjasi elementlariga xos xususiyatlar ham uchraydi. Xususan, *t* tovushining so‘z boshida jaranglilashishi ayrim (yuqoridagi) so‘zlarda reallashadi. Lekin bu holat u qadar ko‘p emas.

[*q* > *g*] o‘zgarishi: *çirāg*, *tüyāg*, *tāmāg*, *yāg* (“yo‘q” ma’nosida). Shevada so‘z oxiridagi *q* tovushining jarangli undosh *g* ga aylanishi ham kuzatiladi. Bu holat, bizningcha, mazkur tip so‘zlarning aksariyat hollarda egalik qo‘shimchalarini olishi va shuning natijasida “*g* li so‘z”ga aylanib qolishi bilan bog‘liq.

[*k* > *g*] o‘zgarishi: *teräg*, *tirsäg*, *peçäg*, *küräg*. Bu o‘zgarish ham yuqoridagiga o‘xshash: so‘z oxiridagi *k* tovushining jarangli undosh *g* ga aylanishi tarzida voqelanadi. Uning reallashishi ham tegishli so‘zlarning aksariyat hollarda egalik qo‘shimchalarini olishi natijasida “*g* li so‘z”ga aylanib qolishi bilan izohlanishi mumkin.

[*b* > *v*] o‘zgarishi: *kītāv*, *xītāv*. Bu o‘zgarish portlovchi undoshning so‘z oxirida sirg‘aluvchiga aylanishi tarzida voqelanadi [Ashirboyev, 2021: 26]. Yuqoridagi so‘zlardan tashqari *-ib* (*-b*) ravishdosh shakli ham, ko‘p hollarda, *-iv* (*-v*) shaklida talaffuz etiladi.

[*q* > *x*] o‘zgarishi: *tāxsän*, *māxtän*, *yāxtī* (“yo‘q, mavjud emas” ma’nosida). Mazkur o‘zgarish dissimilatsiya yoki assimilatsiya asosida sodir bo‘ladi. *Q* tovushining sirg‘aluvchi yoki portlovchi tovush bilan yonma-yon kelishi natijasida uning moslashishi yoki boshqacharoq xususiyatga intilishi natijasida yuqoridagi kabi o‘ziga xos fonetik hodisa voqelanadi.

[*y* > *c*] o‘zgarishi: *cāppā* (yoppa), *cävlik* (“yovliq; hamma, barcha” ma’nosida). Mazkur o‘zgarish, asosan, yondosh qipchoq shevalari ta’sirida paydo bo‘lgan. Bu tip o‘zgarishlar Madaniyat qishloq shevasida juda kam. Kuzatiladiganlari ham qo‘shni sheva talaffuziga taqlidan paydo bo‘lgan (asosan, yuqoridagi ikki so‘z faol, boshqa holatlar me’yoriy emas).

[*t* > *ç*] o‘zgarishi: *çüşünmädīm*, *çüşürmāq* (masalan, *Bābām şörvā pişirdi*, *içigä çiçqān çüşürdi*). Bu o‘zgarish nisbatan kamroq uchraydi. Uning so‘nggi davrda yuzaga kelganligini ta’kidlash o‘rinli. Bu o‘zgarishning mohiyati ham assimilyatsiya bilan bog‘liq bo‘lib [Reshetov, 1978: 37], uning voqelanishida *ch* va *t* tovushlarining integral (til oldi portlovchi) ekanligi muhim omil bo‘lgan.

[s > ç] o‘zgarishi: *çičqān, çāç*. Bu o‘zgarish ham assimilyatsiya bilan bog‘liq bo‘lib, uning voqelanishida so‘z tarkibidagi ikkinchi undoshning regulyativ vazifasi muhim omil bo‘lgan. Bu o‘zgarish ham juda kam sonli so‘zlarda kuzatiladi.

[ş > y] o‘zgarishi: *täylä*. Bu o‘zgarish faqat *tashlamoq* so‘zi bilan bog‘liq. Sheva vakillari orasida asosan, keksalar nutqida *tashlamoq* so‘zining yuqoridagi kabi talaffuzi kuzatiladi. O‘rta va yosh avlod vakillar esa bu so‘zni *täşāmāq* tarzida (*l* tovushini tushirib) talaffuz qilish odatiy hisoblanadi.

[ġ > y] o‘zgarishi: *bāylä*. Bu o‘zgarish ham faqat bir so‘zda, *bāylamāq* so‘zida kuzatiladi. Sheva vakillari orasida *bog‘lamoq* so‘zining adabiy talaffuz shakli deyarli qo‘llanmaydi.

L – 0 morfonemasining voqelanishi: *kesin, āsin, bōmādi*. Shevada boshqa o‘zbek shevalarida ham kuzatiluvchi ushbu fonetik hodisa ko‘proq kuzatiladi. Bir bo‘g‘inli va oxiri l undoshi bilan tugagan fe‘llar talaffuzida, odatda, l tovushi talaffuz qilinmaydi. Shu fe‘llarga unli bilan boshlanuvchi (*-a, -ar, -ib, -uv, va b.*) qo‘shimchalar qo‘shilganda l tovushi istisnosiz talaffuz etiladi.

Bundan tashqari Madaniyat qishloq shevasida progressiv assimilyatsiya: *dāptār* (daftar), *ketti* (ketdi); regressiv assimilyatsiya: *kelli* (keldi), *issiz* (izsiz); progressiv dissimilyatsiya: *zārīl* (zarur); regressiv assimilyatsiya: *qirxtā* (qirqta) kabi turlari uchrashini qayd etish joiz.

Madaniyat qishloq shevasida geminatsiyaning turli ko‘rinishlari uchraydi. Masalan, *sh* tovushi geminatsiyasi *qāşşīg, yāşşīg, yeşşäg, āşşīg, teşşīg* kabi so‘zlarda yaqqol seziladi. Biroq barcha ikki bo‘g‘inli va ikkinchi bo‘g‘in boshida *sh* keluvchi so‘zlarda mazkur holat takrorlanavermaydi. Xususan, *yeşik* (eshik) so‘zida *sh* tovushining ikkilanishi sodir bo‘lmaydi.

Umuman. Madaniyat qishloq shevasining fonetik o‘ziga xosligi yuqorida tavsiflangan jihatlar bilan adabiy tildan va boshqa o‘zbek shevalaridan biroz farqlanadi. Shevaning adabiy til bilan mushtarak fonetik jihatlarini tavsiflashga ehtiyoj yo‘qligi bois, shu o‘rinda mulohazalarga yakun yasash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Решетов В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент, 1978. – 231 б.
2. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: “Nodirabegim” nashriyoti, 2021. – 176 b.
3. Жўраев Х. Ўзбек тили турк-калтатой шевасининг фонетик ва лексик хусусиятлари (Самарқанд, Жиззах, Сирдарё областлари материаллари асосида). – Тошкент: Фан, 1981. – 144 б.
4. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: “Talqin” nashriyoti, 2005. – 272 b.